© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

QASHQADARYO VOHASI TARAQQIYOTIDA ICHKI VA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI. (O‘RTA ASRLAR MISOLIDA)

Ochilov Panji O‘ktamovich
Qarshi davlat universiteti magistranti
ochilovpanji@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘rta asrlarda Qashqadaryo vohasi shaxarlarining taraqqiyotida ichki va tashqi savdoning ahamiyati, Markaziy Osiyo va mintaqa hayotidagi o‘rni masalasi tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Karvon yo‘llari, Buyuk ipak yo‘li, yo‘lovchilar, ulov-transport, Buxoro-Qarshi, sarboz, qaroqchi, inshootlar, Sharqiy Turkiston, Xitoy, Ichki savdo, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi, ziroatchi, chorvadorlar, Nasaf, Kesh, Qarshi, Shaxrisabz,

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников и литературы рассматривается значение внутренней и внешней торговли в развитии городов Кашкадарьинского оазиса в Средние века, а также ее роль в жизни Центральной Азии и региона.

Ключевие слова: Караванные пути, Великий Шелковый путь, пассажиры, конный транспорт, Бухара-Карши, солдат, пират, сооружения, Восточный Туркестан, Китай, внутренняя торговля, ремесла, сельское хозяйство, фермеры, скотоводы, Насаф, Кеш, Карши, Шахрисабз,

Abstract: This article examines the significance of internal and external trade in the development of cities in the Kashkadarya oasis during the Middle Ages, as well as their role in the life of Central Asia and the region, based on historical sources and scholarly literature.

Key words: Caravan routes, Great Silk Road, travelers, transport animals, Bukhara-Karshi, soldier, bandit, structures, East Turkestan, China, domestic trade, handicrafts, agriculture, farmer, livestock herders, Nasaf, Kesh, Qarshi, Shahrisabz,

O‘rta asrlar karvon yo‘llarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, bu yo‘nalishda yechimini kutayotgan muammolar ham bir talay. Xususan, ilk o‘rta asrlardan boshlab ichki va tashqi savdo, tovar–pul munosabatlari rivojlanishiga katta e’tibor qaratish lozim. Vaxolanki IX–XII asrlar mobaynida somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar tomonidan asos solingan davlatlarda savdo-sotiq, pul siyosati mazkur davlatlarning iqtisodiy asosini tashkil etgan.

Tarixchilarning qaydlariga ko‘ra, so‘g‘diylarning dastlabki savdo maskanlari Sharqiy Turkiston va Xitoy hududlarida III–IV asrlarda paydo bo‘lgan hamda VI-VIII asrlarga kelib ularning miqdori bir necha baravar o‘sgan. Turli davrlarda O‘rta Osiyodan, jumladan janub shaharlaridan turli xil mahsulotlar, jumladan, chorvachilik va qishloq xo‘jalik mahsulotlari hamda hunarmandchilik buyumlari olib chiqilgan. Xitoy manbalarida keltirilgan mahsulotlar ro‘yxatida teridan ishlangan buyumlar, gilamlar, qimmatbaho toshlar, dori-darmonlar va bo‘yoqlarni uchratish mumkin [1].

V–VIII asrlarda hunarmandchilik ustaxonalari va savdo do‘konlari barcha shaharlarning ko‘chalari bo‘ylab joylashgan. Ichki savdo jadal rivojlanib, bu jarayon shaharlar aholisining kundalik hayotiga xos bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra 660-yilda Chag‘oniyonda yasalgan qizil va zumrad rangli shisha buyumlar Xitoyga yuborilgan. Chag‘oniyonni qo‘shni mulklar bilan aloqasi elchilik munosabatlari darajasigacha ko‘tarilgan. Buni isboti sifatida turkiylardan bo‘lgan Chag‘oniyon hukmdori Turontosh tomonidan Samarqandga o‘z saroyi dapirpati Bukarzat-mirzoboshisini elchi sifatida yuborganligi qayd etilgan. Sug‘dga tashrif buyurgan bu elchilar o‘zlari bilan sovg‘a sifatida tuyaqush olib kelishgan [2].

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Mazkur davrda Qashqadaryo voxasi shaharlarida kulolchilik, shishasozlik, to‘qimachilik, teriga ishlov berish, toshtaroshlik kabi hunarmandchilik sohalari nisbatan rivojlangan. IX-XII asrlarda ham voha shaharlarida hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish va savdo-sotiq muhim ahamiyat kasb etgan. Shaharlarda tovar-mol ayirboshlashning hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi o‘rtasida, ziroatchilar va chorvadorlar o‘rtasida hamda viloyatlararo mahsulot ayirboshlash yo‘nalishlari mavjud edi. Tadqiqotchilar fikricha, iqtisodiy tumanlardan olib kelingan tovar mahsulotlari viloyatlar markazida to‘planilib, shaharlardan karvon yo‘llariga olib chiqilgan [2].

Iqtisodiy-savdo aloqalari rivoji adolatli soliqlar va bojlar yig‘imi bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Savdo-sotiqdan olinadigan soliqlar turli tarixiy davrlarda, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga bog‘liq holda turlicha bo‘lgan. Tashqi savdoda ishtirok etadigan savdogarlardan boj solig‘i pul yoki mahsulot bilan, asosan, chegaralardagi muhim shaharlarda, qal’alarda yoki karvonlar boradigan shaharda yig‘ib olingan. Savdo-sotiq va yo‘llar bilan bog‘liq soliqlar ichida yanada ko‘plab qo‘shimcha soliqlar ham mavjud edi. Ular ichida daryo kechuvlaridan o‘tish va qayiqlardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan maxsus soliq-suv puli, mahalliy sotuvchilar, do‘konlarning bozorlarda joy solig‘i ham to‘lagani ma’lum [1].

Ilk o‘rta asrlarda, xususan, Turk xoqonligi davrida Kesh shahrining ham iqtisodiy-siyosiy ahamiyati yanada oshgan. VII asrning o‘rtalarida Kesh Sug‘d konfederatsiyasida yetakchi o‘ringa chiqib, qo‘shni mamlakatlar, xususan, Xitoy bilan siyosiy–iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan. Sug‘diyonadan ilk o‘rta asrlarda Toxariston nomi bilan atala boshlagan Surxon vohasi va Janubiy Tojikiston hududlariga o‘tuvchi yo‘llar xitoylik sayyoh, budda rohibi kundaligida ham aks etgan. Unda, xususan, Chag‘oniyon shahri (Budrach yodgorligi) va Termiz Surxon vohasining yirik savdo markazlari sifatida qayd etilgan [3].

V-VI asrlarda Xitoy va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi savdo va madaniy aloqalar rivojining yangi bosqichi boshlanib, Xitoyni G‘arbiy o‘lkalar bilan bog‘lab turgan yo‘llar tarmog‘i kengayib borgan. Qashqadaryo voxasining V-VIII asrlardagi tashqi savdo aloqalari ham bu jarayondan chetda qolmagan. Shu bilan birga xalqaro savdo bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy tabaqalar-savdogarlarning faoliyati ham rivojlangan, ichki va tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi yirik savdo uyushmalari shakllangan. Yo‘lbo‘yi inshootlari qurilishi, tezkor aloqa-pochta xizmati va yo‘llarda tegishli xizmat ko‘rsatish tizimi rivojlanib borgan. Bularning barchasi ilk o‘rta asrlar davrida nafaqat janubiy viloyatlar, balki Markaziy Osiyodagi karvon yo‘llari dinamikasiga xos asosiy xususiyatlar hisoblangan.

Mintaqadagi ichki iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda Qashqadaryo vohasidagi savdo yo‘llari shuningdek, ikki poytaxt shahar-Buxoro va Samarqandni Balx va Xurosonning boshqa shaharlari bilan bog‘lovchi tranzit yo‘llar muhim o‘rin tutgan. Chag‘oniyon, Xuttalon orqali o‘tgan karvon yo‘llari yo‘nalishlari Termizdan Balx va Badaxshonga, Marv va Murg‘ob vohasiga hamda Hindikush dovonlari orqali Qobuldaryo havzasiga o‘tuvchi yo‘llardan ham bu davrda izchil foydalanilgan [4]. Mo‘g‘ullar istilosi tufayli Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab olib borilgan madaniy va iqtisodiy aloqalar inqirozga uchrab, faqatgina XIII asrning 60-70-yillaridan boshlab shaharlar tiklanib, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari yo‘lga qo‘yila boshlagan. Aloqa-savdo yo‘llari faoliyati markaziy hoqimiyat nazoratida bo‘lib, bir kunlik yo‘l masofasida maxsus bekatlar-yomlar barpo etilgan. Savdo yo‘llari bo‘ylab harakatlanayotgan elchilik missiyalari, davlat xizmatchilari va pochta xizmatlari uchun zarur xarajatlarni qoplash karvon yo‘llari bo‘yida joylashgan shahar va qishloqlar aholisi zimmasiga yuklangan edi.

Ilk o‘rta asrlardan boshlab Qarshi, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlarda hunarmandchilikda turli sohalarning rivojlanishi, sifatli buyumlarni ishlab chiqarilishi, shahar va qishloqlarda savdoning yuqori darajada tashkil qilinishi, mahsulotlarni sotish uchun yangi bozorlarning izlanishi natijasida tashqi savdo jadal rivojlanib, bunda vositalik qilish so‘g‘diylarning qo‘liga o‘tgan. Chetga

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

chiqariladigan mahsulotlar VII-IX asrlarda, asosan teri, gazlamalar, kumush va bronzadan ishlangan idishlar, shisha buyumlari, zeb-ziynatlar, qimmatbaho toshlar va yarog‘-aslahalardan iborat bo‘lgan bo‘lsa, X-XII asrlardagi mahsulotlar ro‘yxatida qishloq xo‘jalik, hunarmandchilik mahsulotlari, xom ashyo va chorva mollari ham qayd etilgan [1].

Shaharlarda aholida hunarmandchilik va qishloq xo‘jalik mahsulotlarni sotishga ixtisoslashgan bozorlar mavjud edi[5]. O‘rta asrlarda janubiy O‘zbekiston aholisining turmush darajasi turlicha edi. Bozorlarda gazlamalar, kiyim-kechak va poyabzalning narxi baland bo‘lib, shahar va qishloq aholisining hammasi ham o‘zlariga yangi kiyim-bosh va poyabzal xarid qilish imkoniga ega bo‘lmagan. Katta-kichik bozorlarda qandolat turlari, quruq mevalar, mayiz navlari, nisholda, non, sut, qatiq va go‘sht sotilgan. Non do‘konlari, asosan mahalla va bozorlarda joylashgan.

IX-X asrlarda aholining xo‘jalik hayotida hunarmandchilik katta o‘rin tutadi. Qashqadaryo vohasi shaharlarida to‘qimachilik, kulolchilik, degrezlik, chilangarlik, zargarlik, shishasozlik va duradgorlik kabi kasb-hunarlar ancha rivoj topadi. Natijada shaharlarning qiyofasi tubdan o‘zgaradi. Unda katta-katta oliy imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa, maqbara, namozgoh, honaqoh va karvonsaroylar qad ko‘targan. Endilikda shaharlar ilk o‘rta asrlarda ark (o‘rda), shahriston (ichki shahar) va rabot (tashqi shahar) deb yuritilgan uch qismini yagona devor bilan qamrab olgan, o‘ndan ortiq darvozali kattagina hunarmandchilik markaziga aylanadi. Bu davrda shaharga atrof qishloqlardan kosiblar, savdogarlar va boshqalar kelib o‘rnashib, uning atrofi bo‘ylab kosib va hunarmandlarning yangi-yangi mahalla-ko‘ylari, bozor va rastalar paydo bo‘ladi. Mahalla-guzarlarda zargarlar, sarroflar, to‘quvchilar, kulollar, misgarlar, temirchilar, duradgorlar va boshqa shu singari kosibu hunarmandlarning uy-joylari va do‘konlari joylashgan. Ayni davrda Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Shosh, Nasaf, Termiz, Kesh, Aksikat kabi shaharlar o‘rta asr hunarmandchiligining rivoj topgan yirik markaziga aylangan [6]. Qayiqsozlik taraqqiy qilib, Xorazm va Termizda yasalgan qayiqlar Amudaryo bo‘ylab to Xorazm (Orol-A.A) dengizigacha muttasil mol tashib, savdogarlarning yukini yengil, uzog‘ini yaqin qilardi.

Bu davrda shaharlar bilan bir qatorda qishloqlar ham mamlakatning iqtisodiy hayotida katta rol o‘ynay boshlaydi. Qashqalaryo vohalarida, ko‘pgina yirik qishloqlarda to‘qimachilik, misgarlik, duradgorlik kabi hunarmandchilikning bir qancha sohalari yuksaladi. IX-X asrlarda qishloq va shaharlarda, ayniqsa kulolchilik va shishasozlik avj olgan edi. Bu davrda yasalgan xilma-xil sirli va naqshinkor sopol idishlar, rangli shisha buyumlar juda sifatli bo‘lgan [7].

X asrda tashqi savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng foydalanilar edi. O‘sha vaqtda savdogarlar o‘zi bilan ko‘p miqdorda pul olib yurmas edi. O‘z pulini u shaharning inobatli sarroflaridan biriga topshirib, undan tegishli hujjat-chek olardi. Mo‘ljallangan shaharga borish bilan shu chekni sarrofga berib, unda ko‘rsatilgan miqdordagi pulni to‘laligicha qaytarib olishi mumkin edi. Hatto “chek” so‘zining o‘zi ham forscha ibora bo‘lib, o‘sha vaqtda ham bu so‘z ayni shu ma’noda ishlatilar edi [8]. Viloyatlararo ichki savdo-sotiq hamda mamlakatlararo karvon savdosining avj olganligi, shubhasiz, o‘z navbatida ko‘p miqdorda chaqa va tangalarning muomalada bo‘lishiga olib keladi. Ichki bozorlarda “fals” deb ataladigan mis chaqa, xalqaro savdo-sotiqda esa kumush tanga-dirhamlar ishlatilardi. Mis chaqalarni markaziy hukumat ham, shuningdek, sulola a’zolaridan bo‘lgan ba’zi mahalliy viloyat hokimlari ham, hatto ayrim yirik mulkdorlar ham chiqarar edilar [9].

IX-XIII asr boshlari Movarounnahrda savdo va madaniyat markazlari bo‘lgan yirik shaharlarning ko‘payishi va taraqqiyoti davri bo‘lgan. Bu davr ichki va tashqi savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojida muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy-madaniy aloqalarning rivojlanishi savdo yo‘llari tarmoqlarining kengayishiga va ular faoliyatining jonlanishiga olib keldi. Buyuk ipak yo‘lining markaziy yo‘nalishlari bo‘yida joylashgan Movarounnahr shaharlari nafaqat Sharq dunyosida, balki ulkan Yevroosiyo mintaqasi miqyosida amalga oshiriladigan tranzit aloqalarda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Ko‘rib chiqilayotgan davrda Buxoro-Nasaf-Balx savdo yo‘li ham musulmon Sharqining muhim savdo yo‘nalishlaridan biri hisoblanardi.

Rivojlangan o‘rta asrlarda Movarounnahrning ikki poytaxt shahri Buxoro va Samarqandni Eron, Afg‘oniston va Hindiston bilan bog‘lovchi tranzit savdo yo‘llari Qashqadaryo vohasi orqali o‘tardi. Vohaning bosh shahri Nasaf Buxoroning Xuroson va Hindiston bilan aloqalarida muhim o‘rin tutardi [10].

Ma’lumki, Samarqandni janubdagi xalqaro savdo markazlari bilan bog‘lovchi yo‘l ham qadimdan Qashqadaryo vohasi orqali o‘tgan. Rivojlangan o‘rta asrlarda bu vohaning asosiy shaharlaridan bo‘lgan Nasaf va Keshdan o‘tgan savdo yo‘llari, nafaqat ichki savdo aloqalarida, balki tranzit aloqalarda ham muhim o‘rin tutardi. Farg‘ona, Toshkent vohasi va Samarqanddan yo‘lga chiqqan karvonlar Jom dashti orqali Nasafga kelishgan. Bu yerdan Amudaryodagi kechuvlarga (Kelif, Karki, Amul) yoki Temir darvoza orqali Termizga ketuvchi yo‘llar boshlangan. Manbalarda Nasaf-Termiz savdo yo‘li Subah, Kindik qishlog‘i, Temir darvoza orqali o‘tishi ta’kidlab o‘tilgan. Kindik qishlog‘i Nasafdan va Keshdan 3 kunlik yo‘l masofasida bo‘lib, bu yerda Samarqanddan Kesh orqali keluvchi savdo yo‘li Nasaf-Termiz savdo yo‘liga qo‘shilgan [10].

Hindiston va Afg‘onistonning savdo shaharlarini Samarqand, Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysi bilan bog‘lovchi Sharqiy Xuroson savdo yo‘li ham rivojlangan o‘rta asrlarda muhim o‘rin tutardi. Mutaxassislarning fikricha, Amudaryodan o‘tib, Kelif va SHo‘rob kechuvlarida bu yo‘l ikki tarmoqqa ajralgan. Birinchisi, Kelif-Nasaf-Jom orqali, ya’ni Ko‘xitog‘ning g‘arbiy tizmalari, Nasaf-Jom oralig‘idagi dashtlar va Zarafshon tog‘ining g‘arbiy yon bag‘ri orqali Samarqandga o‘tgan bo‘lsa, ikkinchisi Kesh va Taxtaqoracha davoni orqali o‘tgan. Samarqanddan Keshgacha ikki kunlik yo‘l bo‘lgan va ular o‘rtasidagi to‘xtash joyi Drizdeh hisoblangan [4]. Ma’lumki, Eron va Xurosondan Nasaf, Kesh va Buxoro orqali Xitoyga o‘tuvchi savdo yo‘li Samarqand, Shosh vohasi, Farg‘ona vodiysi orqali o‘tgan. Karmana yaqinida joylashgan Raboti Malik yodgorligini o‘rgangan mutaxassislar bu joy X-XII asrlarda Buxoro-Samarqand savdo yo‘lidagi muhim bekatlardan biri bo‘lganligini ta’kidlab o‘tishgan [11].

Tarixiy manbalarda Kesh haqida u yerda mevalar Movarounnahrning hamma yerlariga nisbatan ertaroq pishadi va ularning ilk hosili Buxoroga keltiriladi deb ta’kidlanadi [11]. Keshda yer ostidan tosh tuzi qazib olinadi va uni Xurosonning ko‘p viloyatlariga olib ketilgan. Uning tog‘larida ko‘plab dorivor o‘simliklar bo‘lib, u yerda dori uchun ishlatiluvchi at-taranjubin olingan. Keshda Movarounnahrning mashhur otlari yetishtirilib, Xurosonning boshqa viloyatlariga zotli otlar ham olib ketilgan. Shaharda bozorlar gavjum bo‘lib, savdo-sotiqni muhtasib doimiy nazorat qilar edi. Muhtasib mollarning sifatini, qop, qanor va idishlar tozaligini, mevalarni yangi uzilganligini, tosh-tarozularning to‘g‘riligini tekshirar, muttahamlarni, tarozidan urib qoluvchilarni jazolar edi. Muhtasiblik lavozimiga ishonchli odamlar yoki imomlar qo‘yilardi [12].

Somoniylar davridan boshlab, ko‘pgina Sharq mamlakatlarida (doimiy urushlar, vayronkorliklar va boshqa sabablar tufayli) oltin tangalar bozorlarda kamayib, sifatsiz kumush tangalar va mis tangalar ko‘paydi. Olimlarning fikricha, bunga kumush konlarida zahiralarning kamayib ketgani ham ta’sir qilgan. Buyuk saljuqlar davlatida oltin dinorlar zarb qilinar edi. G‘aznaviylar kabi, saljuqlar ham oltin dinor og‘irligini turli misqollarda chiqarar, aholi buni bilar edi. Dinorlar og‘ir, yengilligiga qarab, turlicha atalardi. Saljuqiylar zamonida asosiy zarbxona Nishonpurda edi. Nishonpur (Naysabur) dinorlari ana yuqori sifatli (92-98% sof oltindan) edi [12].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ilk o‘rta asrlardan boshlab, Qashqadaryo vohasining ko‘plab shaharlarida hunarmand-chilikning turli sohalari (kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, shishasozlik, to‘qimachilik, paxta tolasi va ipak matolar tayyorlash, shoyi gazlamalar ishlab chiqarish) jadal rivojlanishi natijasida ichki va tashqi savdoni yuqori darajada maqsadli tashkil qilish zaruriyati vujudga kelgan.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

VI–VII asrlar nafaqat xalqaro savdo balki ichki tumanlararo savdo ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Turli shahar va qishloqlardan ziroatkorlar, chorvadorlar, hunarmandlar va savdogarlar savdo yarmarkalarini tashkil etib turganlar. Ichki savdo uchun mis va bronza tangalar zarb etilgan. Shuningdek, Termizda kumush tangalar chiqarilgan. Barcha mahsulotlar o‘zining aniq narxiga ega bo‘lgan.

O‘rta asrlar Qashqadaryo vohasi hududlarida savdo va madaniyat markazlari, yirik shaharlarning ko‘payishi va taraqqiyoti davri bo‘lib, ichki va tashqi savdo-iqtisodiy aloqalar rivojida muhim o‘rin tutgan. Bu davrda iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi savdo yo‘llari tarmoqlarining kengayishiga va ular savdo-sotiq faoliyatining jonlanishiga olib keldi.

Адабиётлар.

1. **Сагдуллаев А., Мавлонов Ў., Маҳкамова Д.** Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотиқ тизими. — Т.: Академия, 2012. — 36 б.
2. **Отахўжаев А.** Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. — Тошкент: “ART-FLEX”, 2010. — Б. 18.
3. **Чўтматов Ж.** Термизнинг безавол қалъалари ёҳуд Термиз тарихи. — Тошкент: “Янги нашр”, 2017. — 42 б.
4. **Гоибов Б.** Согд-Фергана-Китай: приоритетные торговые связи // Фарғона водийси янги тадқиқотларда: Конф. материаллари. — Фарғона, 2014. — Б. 137-144.
5. **Мавлонов Ў. М.** Ўрта асрларда Жанубий Ўзбекистонда иқтисодий-савдо муносабатлари // ЎзМУ хабарлари. Махсус сон. — Тошкент, 2014. — Б. 41-45.
6. **Раимқулов А.** Қашқадарё воҳасининг ўрта аср шаҳарлари. — Қарши: “Насаф”, 2018. — Б. 81-90.
7. **Кобзева О. П.** Великий шелковый путь и мировая цивилизация. — Т.: 2002.
8. **Мавлонов Ў. М.** Ўрта асрларда Жанубий Ўзбекистонда иқтисодий-савдо муносабатлари // ЎзМУ хабарлари. Махсус сон. — Тошкент, 2014. — Б. 44.
9. **Бабаяров Г., Кубатин А.** Доисламские монеты Согда: новое чтение и интерпретации легенд // Сборник науч. тр. — Самарканд, 2012. — С. 11-23.
10. **Беленицкий А. М., Бентович И. Б., Большаков О. Г.** Средневековый город Средней Азии. — Л., 1973. — С. 329-330.
11. **Пугаченкова Г. А.** Чағониён тарихи. Холчаён. — Тошкент: Ислом университети, 2002. — Б. 66-69.
12. **Буниёдов З.** Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097–1231). — Тошкент, 1998. — Б. 136-144.